

**U. Fayziyeva, S.Yuldasheva,
Yu.Karimova**

KO'RING, ESHITING, CHIROYLI GAPIRING



Taqrizchilar:

- K. Jo'raboyev** – O'quvchilarni kasbga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazining direktor o'rinbosari;
- D. Nazarova** – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti maxsus pedagogika fakultetining dekani, p.f.n.;
- F. Yo'ldasheva** – Toshkent viloyat Ohangaron shahar 7-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslastirilgan yordamchi maktab-internat logopedi;
- SH. Temirova** – Toshkent shahar 106-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslastirilgan zaif eshituvchi bolalar maktab-internati o'qituvchisi.

Qo'llanma imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlaydigan surdopedagoglar, logopedlar, shu yo'nalishda ta'lim olayotgan talabalar va keng jamoatchilikka mo'ljallangan. Qo'llanmada nutqda va talaffuzda uchraydigan kamchiliklarni to'g'rilash, bolalar nutqining aniq, ravon bo'lishi uchun zarur bo'lgan o'quv materiallari berilgan.

Mutaxassislar va ota-onalar uchun barcha nutq tovushlarining hosil bo'lish o'rne va usuli keng yoritib berilgan. Nutq va talaffuzda chuqur buzilishi bo'lgan bolalar uchun nafas, ovoz mashqlarini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar illustratsiyali namunalar orqali berilgan. Har bir tovushni hosil qilishdan boshlab bo'g'inlarda, so'zlarda va gaplarda, matnda, she'rlarda mustahkamlash uchun bolalarning yoshi va imkoniyatiga moslashtirib foydalanilishi ko'zda tutilgan.

Ota-onalar qo'llanmadan foydalangan holda, o'zlari mustaqil ravishda farzandlarining nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish tartibini o'rganib, uy sharoitida mustaqil yoki logoped o'qituvchi rahbarligida nutq kamchiliklarini tuzatishlari mumkin.

Qo'llanma O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi Ilmiy-metodik kengashining 2020-yil 24-avgustdagi 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

TUSHUNTIRISH XATI

Kishilar o'rtasidagi muomalaning asosiy vositasi og'zaki nutq hisoblanadi. Inson nutq yordamida o'z fikrini, his-tuyg'ularini izhor qiladi hamda boshqalarning hissiyotlarini bilib oladi. Ya'ni, nutq faoliyati aloqa o'rnatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Talaffuzdagi kamchiliklar nutqning noaniqligini keltirib chiqaradi.

Nutq nuqsonlari aksariyat hollarda maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda kuzatiladi.

Nutqdagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablari turlicha bo'ladi: tug'ma yoki orttirilgan, eshitish qobiliyati past yoki karlik darajasida bo'lgan, koxlear implant qo'yilgan, eshitish apparati taqadigan bolalarda, nutq apparatida nuqsoni bo'lgan va fonematik eshituvi me'yorda bo'lmagan bolalarda kuzatiladi.

Davlatimiz tomonidan bolalarning to'laqonli va to'kis bo'lib rivojlanishi hamda voyaga yetishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bolalarning nutqidagi nuqsonlarni korreksiyalash va bartaraf etishni tashkil qilish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalari qoshida tashkil etiladigan logopediya shoxobchalari faoliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki, nutqi va nutqiy tafakkuri mukammal bo'lishi uchun bolalar nutqidagi nuqsonlarni qaysi shakl, qanday darajada bo'lishidan qat'i nazar, erta aniqlab, korreksion ish olib borish talab etiladi.

Umumta'lim maktablari o'quvchilari tarkibida nutqi to'liq rivojlanmagan, rivojlangan lekin bir qator tovushlar yoki ayrim tovushlar talaffuzida kamchiliklari

bo'lgan o'quvchilar mavjud. Shu bilan bir qatorda jag' yoki tilning o'zagi, pardasi kalta bo'lib, pastki tanglayga yopishganligi tufayli qator tovushlarning talaffuzi noaniq bo'ladi. Talaffuzidagi buzilish va nuqsonlar nutqining aniqligi va ravonligiga ta'sir ko'rsatishi sababli, bu holatlar o'quvchilarning ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Shuningdek, tovush yo'qligi sababli boshqa tovush bilan almashtirib talaffuz qilishi natijasida yozma nutqiga ta'sir qilish natijasida disgrafiyaning keltirib chiqarish holati ham uchraydi.

Eshitishida muammolari bo'lgan maktabgacha yoshdagi 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga davlatimiz tomonidan grant asosida koxlear implantlar qo'yilishi tashkil etilgan.

5 yoshdan oshgan bolalar va maktab-internat o'quvchilari uchun «Zamin» fondi tashabbusi bilan, fond mablag'i hisobidan koxlear implant qo'yilishi tashkil etilgan. Eshitishida muammosi bo'lganligi tufayli koxlear implantatsiya qilingan yoki eshitish apparati orqali eshitadigan o'quvchilarda uchraydigan nutq kamchiliklari, talaffuz kamchiliklari, asosan ilk yoshidan boshlab eshitmasligi tufayli turg'un holatga kelgan bo'ladi. Bunday o'quvchilar bilan birinchi o'rinda eshitish qobiliyatini rivojlantirish ustida ish olib boriladi. Logoped esa nuqsonli yoki umuman talaffuzida bo'lmagan tovushlarni hosil qilish va to'g'rilash ustida ish olib boradi. Bular quyidagilardan iborat:

nuqson bilan talaffuz qilinayotgan tovushlarni to'g'rilash;

talaffuzida yo'q bo'lgan tovushni boshqa tovush bilan almashtirib aytilib kelingan tovushlarning to'g'ri talaffuzini hosil qilish;

muammoli tovushlar talaffuzini to'g'rilash va bo'g'inlar, so'zlar, gaplar, matn va she'rlarni o'qish orqali mustahkamlash va nutqqa kiritish;

so'z boyligini oshirish, nutqini aniq, ravon bo'lib rivojlantirish kabi ishlarni ko'zda tutadi.

Qo'llanmada:

1. Artikulatsiya (nutq) apparatini rivojlantiruvchi mashqlar berilgan. Bu mashqlarni logoped yoki surdopedagog kerakli o'rinda tanlab qo'llashi talab qilinadi. Chunki har bir mashq nutq apparati, nafas olish va ovozning to'g'rilanishi muayyan tovushning talaffuziga, gaplarning o'qilishiga tayyorlaydi.

2. Har bir tovushning artikulatsiya apparatidagi holati va talaffuzini hosil qilish mexanizmi, ya'ni lab, tish, til, tanglayning ishtiroki, harakati va holati tasviri va tavsifi bilan berilgan.

3. Tovushlar talaffuzini mustahkamlash uchun so'zlar, gaplar, hikoyalar, ertaklar rangli rasmlar orqali berilgan.

Qo'llanma logopedlar, surdopedagoglar, maktab-gacha tarbiya muassasalari tarbiyachi va pedagoglar, ota-onalarning bola bilan uy sharoitida, oilaviy tarzda shug'ullanishi, mutaxassislarning topshirig'ini mustaqil bajarishida qo'llanilishi mumkin.

RANGLAR



Qizil atirgul



Ko'k pufak



Sariq jo'ja



Kulrang fil



Pushti doira



Yashil archa



Oq paxta



Jigarrang ayiq



Havorang uchburchak

MEVALAR



Ananas



Mandarin



Anor



Nok



Olma



Behi



Uzum



Gilos



Shaftoli



Banan



Limon

SABZAVOTLAR



Pomidor



Karam



Baqlajon



Qovun



Bodring



Lavlagi



Tarvuz



Sabzi



Piyoz



Kartoshka



Sarimsoq



Qovoq

UY HAYVONLARI



Mushuk



Quyov



Kuchuk



Buqa



Qo'y



Echki



Ot



Sigir

Zokirjon Admin bilan

+99891-328-88-38 nomerga murojaat qilishingiz jek567 izlab telegramga yozishingiz yoki shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

MTT defektologining Ko'ring, eshiting, chiroyli gapiring kitobini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: 9860230104973329

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**